

YURIDIK SHAXSLAR VA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI UCHUN ISH HAQI LOYIHASI HAMDA BANK KARTALARIGA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA OMMAVIY OFERTA.

ATB "Biznesni rivojlantirish banki" (keyingi o'rinlarda – **Bank**) yuridik shaxslarga va o'rta va kichik tadbirkorlik sub'ektlariga (keyingi o'rinlarda – **Bank kartasi saqllovchisi**) ish haqi loyihasi hamda bank kartalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-369-moddalariga muvofiq ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda – **Oferta**) tuzishni taklif qiladi.

Bank kartasi saqllovchisi Bankning taklif etgan Ofertasini harakatlari orqali akseptlashi, u tomonidan oferta tuzishga rozi bo'lganligini hamda uni talablarini e'tirozsiz to'liq qabul qilganligini bildiradi.

Ofertani Bank kartasi saqllovchisi mobil aloqa vositasi orqali bankning www.brb.uz veb-saytidan PDF shaklida yuklab olishi mumkin.

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

ish haqi loyihasi – Bank va Mijoz o'rtasida tuziladigan alohida shartnomaga asosan Mijoz ishchi-xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, jumladan, kompensatsiya va boshqa ijtimoiy to'lov summalarini bank kartalari orqali olinishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan loyiha (tadbir);

xodim – yuridik shaxs bilan muddatli yoki nomuayyan muddatga mehnat shartnomasi asosida ishlovchi jismoniy shaxs;

bank kartasi – uni saqllovchisiga to'lov infratuzilmari orqali to'lovlarni amalga oshirish yoki naqd pul mablag'larini olish yoxud valyuta ayirboshlashni amalga oshirish va bank kartasining emitenti tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalarni bajarish imkonini beruvchi to'lov vositasi;

bank kartasining saqllovchisi – emitent yoki bank kartalarini tarqatuvchi bank bilan mijoz o'rtasidagi shartnomaga asosan Bank kartasi saqllovchisi mijoz yoki mijoz tomonidan vakolat berilgan shaxs;

SHIR kod – bank kartasi saqllovchisining shaxsiy identifikatsiya raqami bo'lib, u karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini boshqarish huquqini hamda mablag'larni boshqarishga bank kartasining saqllovchisi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi;

Stop list – protsessing markazi tomonidan shakllantiriladigan va doimiy yangilanib turiladigan, yo'qolgan yoki hisob-kitob amaliyotlari vaqtincha bank tomonidan to'xtatib turilgan bank kartalari ro'yxati.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Mazkur shartnomaga muvofiq Bank, "Ish haqi loyihasi"ga doir bank kartasi hisobvaraqlarini ochish va bank kartasiga (bank kartalarini taqdim qilish, pul mablag'larini hisobvarag'iga kiritib qo'yish, "Stop list"ga qo'yish, qaytarib olish, hisobvaraqlarini yopish va boshqa) xizmatlar ko'rsatish, Mijoz "Ish haqi loyihasi"ga doir hujjatlarni taqdim qilish hamda xodimlari tomonidan bank kartasidan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar tartibga solinadi.


3. SHARTNOMANING ASOSIY SHARTLARI VA TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bank kartasining mulkdori bo'lib, Bank hisoblanadi.

3.2. Mijoz xodimlariga "Ish haqi loyihasi" bo'yicha bank kartasi ochish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim qiladi:

- xodimlarga bank kartasini ochish va xizmat ko'rsatish bo'yicha bank bo'linmasi rahbari nomiga yozma (xo'jalik sub'ekti rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolangan va yumaloq muhri bilan tasdiqlangan) arizasi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbarining javobgarligi ostida xodimlarining shaxsini



tasdiqlovchi hujjatlarining aslidan olingan nusxasi;

3.3. Bank mazkur shartnomaning 3.2. -bandida qayd etilgan hujjatlar bankka to'liq taqdim etilgandan keyin xo'jalik yurituvchi sub'ekt bilan "Ish haqi loyihasi" bo'yicha bank kartalariga xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnomani rasmiylashtiradi va imzolaydi hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektning xodimlariga 3 bank ish kuni ichida bank kartasi hisobvaraqlarini ochadi.

3.4. Shartnoma imzolangandan so'ng mijoz xodimlari bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, bank tarifida belgilangan xizmat turi bo'yicha to'lovni (agar bank tariflarida bunday xizmat turi bo'yicha to'lov belgilangan bo'lsa) belgilangan tartibda bankka to'langandan so'ng, bank kartasi xodimlarga bank tomonidan taqdim qilinadi.

3.5. "Ish haqi loyihasi" bo'yicha ochilgan va emissiya qilingan bank kartalari maxsus kitobda ro'yxatga olinib, shaxsan jismoniy shaxsni o'ziga - shaxsini tasdiqlovchi hujjatni aslini tekshirib, maxsus kitobda imzo qo'ygandan keyin - taqdim qilinadi.

3.6. Mijoz xodimlarining bank karta hisobvarag'iga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni kirim qilish bankka elektron tarzda yoki xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari, bosh buxgalteri imzosi hamda muhri bilan tasdiqlangan to'lov topshiriqnomasi va ilova qilingan ish haqi qaydnomasini (vedomosti) bankka taqdim etgandan keyin, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bank kartalariga uch bank ish kunidan kechiktirilmasdan kirim qilinadi.

3.7. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bank kartalariga o'tkazish uchun bankda ochilgan maxsus tranzit hisobvaraqlarga kelib tushadi.

3.8. Mijoz xodimlarining bank kartalarining yo'qolganligi yoki shikastlanganligi to'g'risida ma'lumotlarni "Stop list"ga qo'yish uchun darhol xodimlari tomonidan Bankka ariza berilishini nazoratini ta'minlaydi.

3.9. Mijoz o'z hodimi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda, xodimga berilgan bank kartasi bankning amaldagi jismoniy shaxslarga ochilgan bank kartasiga xizmat ko'rsatish shartnomasi shartlari asosida xizmat ko'rsatiladi.

3.10. Bank kartasi hisobvarag'ini yopish to'g'risida Mijoz xodimining arizasini olgandan so'ng, bank kartasidagi qoldiq summa bilan hisobvaraqdagi summa bir xil ko'rsatkichga kelmaguncha yopilmaydi.

3.11. Bank kartasi hisobvarag'ini yopish to'g'risidagi ariza bankka kelib tushgandan so'ng mazkur shartnomaning 3.13-bandida ko'rsatilgan talablar bajarilgandan keyin, hisobvaraqdagi qoldiq summa (agar mavjud bo'lsa) Mijoz xodimining arizasiga muvofiq boshqa hisobvaraqlarga o'tkazib beriladi.

3.12. Mijozning bankdagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i yopilganda, xodimga berilgan bank kartasi bankning aktsepsiz tarzda amaldagi jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish ofertasi shartlari asosida xizmat ko'rsatiladi.

mazkur shartnomaga muvofiq mijoz o'zining xodimlariga berilgan bank kartalarini to'liq bankka qaytarishi lozim.

3.13. Taraflar mazkur shartnomada kelishilgan shartlarni o'z vaqtida va lozim darajada bajarish majburiyatini oladilar.

3.14. Taraflar mazkur shartnoma doirasida bo'lgan munosabatlarida O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish qonunchiligi talablariga rioya etish majburiyatini o'z zimmlariga oladilar.

3.15. Mijoz yoki mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiya 2886-ga asosan yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga kiritilgan taqdirda bank ushbu mijozni tekshirishning kuchaytirilgan chora-tadbirlarini: - operatsiya bo'yicha pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning manbalari haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni olish, maqsadlarini o'rganish, ushbu mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalar ustidan doimiy monitoring yuritish va bu haqda komplaens nazorat xizmati masul xodimga xabar berishlari shart.

4. TARAFLARNING HUQUQLARI

ATB "Biznesni rivojlantirish banki"
YURIDIK DEPARTAMENTI



4.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

Xodimlarining milliy valyutadagi bank kartasi hisobvarag'iga o'tkazilgan pul mablag'larining to'g'ri va o'z vaqtida bank tomonidan kirim qilinganligini Bankdan talab qilish;

"Ish haqi" loyihasi bo'yicha bank kartalarini o'z vaqtida bank tomonidan taqdim qilinishini talab qilish;

"Ish haqi" loyihasi bo'yicha mablag'lar hisobining to'g'ri yuritilishi bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni bankdan talab qilib olish.

4.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

Mijoz tomonidan ushbu Shartnomaning shartlari lozim darajada bajarilmaganda, shartnomani bir taraflama to'xtatib qo'yish yoki bekor qilish;

Pul mablag'larini Xodimlarining bank kartasi hisobvarag'iga tushirish uchun taqdim etilgan hujjatlarda noaniqliklar yoki nomuvofiqliklar mavjud bo'lgan hollarda, Mijoz tomonidan o'tkazilgan mablag'larni tegishli hisobvaraqlarga kirim qilmaslik va buning uchun javob bermaslik;

Bank kartasi bo'yicha ko'rsatilgan barcha xizmatlar uchun bank amaldagi tariflariga yoki tomonlar o'rtasida tuzilgan alohida shartnomaga muvofiq mijozdan bank xizmat haqini akseptsiz undirish;

Quyidagi hollarda, mijozning roziligisiz, uning Bank kartasi hisobvarag'idan mablag'larni ko'chirish:

- bank tarifiga ko'ra, bank xizmatlari uchun to'lovlarni;
- bank kartasi hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri yoki adashib kirim qilinganda;
- karta hisobraqamidagi aktiv qoldiqdan ortiq miqdorda tranzaksiyalar amalga oshirilganda, ushbu mablag'lar mijoz tomonidan 3 (uch) kunlik muddatda ixtiyoriy ravishda qoplanmagan taqdirda;

Mijoz Bank kartasi chiqarish uchun ariza berlgan kundan boshlab 3 oy (yoki 90 kalendar kuni) muddatda olib ketmasa ushbu karta bank mas'ul xodimlari tomonidan yo'q qilinadi;

Bank kartasi Bank tomonidan Qoidalarda belgilangan hollarda yoki vakolatli organ tashabbusi bilan bloklanishi mumkin;

Mijoz yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda operatsiyani o'rganish maqsadida:


- operatsiyani o'rganish maqsadida mijozdan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash;
- operatsiya miqdorini chegaralash;
- operatsiyani cheklash(rad etish);
- mijozning anketasidagi ma'lumotlar, profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va mijoz bilan shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

Norezidentlarga ochilgan xalqaro to'lov kartalarini xalqaro to'lov tizimlarining emissiya tartibi talablari foydalanuvchi tomonidan buzilgan taqdirda, bank tomonidan bir tomonlama ushbu mijoz bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish va kartani bloklashi mumkin;

Mijoz yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda operatsiyani o'rganish maqsadida:

- mijozdan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash;
- operatsiya miqdorini chegaralash;
- operatsiyani cheklash (rad etish);
- mijozning anketasidagi ma'lumotlar, profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va mijoz bilan shartnomani bir tomonlama bekor qilish;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish.

4.3. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga" (ro'yxat raqami 2886, 2017-yil 23-may) muvofiq



mijoz hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga yoki ularni amalga oshirishni rad etishga haqli) qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5. NIZOLARNI HAL ETISH

5.1. Shartnomani bajarishda yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Taraflar tomonidan muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Kelishuvga erishilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq sud orqali hal etiladi.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIKLARI

6.1. Mijoz quyidagilar uchun javobgar:

ushbu shartnoma doirasida bankka taqdim etiladigan hujjatlar va ma'lumotlarning haqiqiyligi va ishonchliligi uchun;

Bank kartasi hisobvarag'iga noto'g'ri kirim qilingan mablag'lar haqida bankni 2 (ikki) bank ish kuni ichida xabardor qiladi, agar mijoz ushbu mablag'larni ishlatgan bo'lsa, ishlatilgan mablag'larni 3 (uch) bank ish kuni ichida qaytarish;

elektron ko'rinishdagi va qog'ozga chop etilgan ma'lumotlarning aynan bir xilligi uchun;

"Ish haqi" loyihasi bo'yicha Mijoz va xodimining noqonuniy harakati oqibatida kelib chiqadigan barcha huquqiy oqibatlar uchun;

SMS xabarnoma orqali keladigan bir martalik tasdiqlovchi kodlarni, mobil ilovalarga kirish huquqini beruvchi parollarni begona shaxslarga taqdim etmaslik uchun;

Mobil telefon raqami o'zgarganda, bankni darhol xabardor qilish uchun.

6.2. Bank quyidagilar uchun javobgar:

Mijoz xodimlarining bank kartasi hisobvarag'iga "Ish haqi loyihasi" bo'yicha kelib tushgan pul mablag'larni 3 (uch) bank ish kunidan kechiktirmasdan kiritib qo'yish;

Bank tomonidan Mijozning xodimidan karta yo'qotilgani yoki o'g'irlangani to'g'risida ariza qabul qilinganidan keyin kartadan foydalanib o'tkazilgan operatsiya uchun;

bank sirini oshkor etganlik uchun.

6.3. Bank quyidagilar uchun javob bermaydi:

Mijoz yoki Mijozning Xodimi tomonidan "Ish haqi loyihasi" bo'yicha yo'qotilgan bank kartasi "Stop list"ga qo'yish bo'yicha Bankni o'z vaqtida yozma xabardor qilmaganlik oqibatlari uchun;

texnik nosozliklar (elektr ta'minotining va aloqa tarmoqlarining o'chib qolishi, texnik qurilmalarning ishdan chiqishi, dasturiy ta'minotdagi, elektr ta'minotdagi, ma'lumotlarni uzatish tarmog'ida va tashqi omillar sababli bank ma'lumotlar bazasidagi uzilishlar, Protsessing tashkiloti bilan aloqa uzilib qolishi) sababli Shartnoma talablarini bajarilmaganligi uchun;

Mijoz pul mablag'larini o'tkazish to'g'risidagi to'lov topshiriqnomasini o'z vaqtida taqdim etmagan yoki noto'g'ri taqdim etgan bo'lsa;

Mijozning to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan, karta hisobvarag'iga tushirilishi lozim bo'lgan summa reestrda ko'rsatilgan sumмага muvofiq bo'lmasa;



Mijoz tomonidan reestrda bank kartasining raqami, xodimining familiyasi, ismi, otasining ismi noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa;

asosli bo'lgan boshqa hollarda.

6.4. Taraflar o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgar bo'ladilar.

6.5. Taraflarning javobgarliklari bo'yicha mazkur shartnomada nazarda tutilmagan holatlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarigv muvofiq hal etiladi.

6.6. Mijoz SMS xabarnoma orqali keladigan bir martalik tasdiqlovchi kodlarni, mobil ilovalarga kirish huquqini beruvchi parollarni begona shaxslarga taqdim etmaslik uchun, mobil telefon raqami o'zgarganda, bankni darhol xabardor qilish uchun javobgar.



6.7. Taraflar yengib bo'lmay kuch ta'siri ostida (suv toshqini, zilzila, elektr ta'minotidagi uzilishlar), shuningdek Taraflarning nazoratidan tashqarida bo'lgan boshqa sabablar tufayli majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganlarida javobgarlikdan ozod etiladilar.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Shartnoma taraflaridan birining tashabbusi bilan boshqa tarafni bu haqda bekor qilinishi mo'ljalanayotgan kundan 30 kun oldin yozma ravishda xabardor qilgan va ushbu shartnomani bajarishga oid barcha masalalar va nizolar to'liq hal etilgan holda bekor qilinishi mumkin.

8. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Shartnoma "Ish haqi loyihasi" bo'yicha bank kartasi mijozga berilgan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi va taraflardan biri tomonidan shartnomani bekor qilish bo'yicha murojaat qilgunicha amalda bo'ladi.

8.2. Shartnomada alohida qayd etilmagan munosabatlar mazkur faoliyatni huquqiy tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

